

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА – ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

“СОЦИОЛОГИЯ ВА ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИ”
КАФЕДРАСИ

“Қурилиш архитектураси” фанидан

Р Е Ф Е Р А Т

Registon Dunyo Nigohida

Yusupova Aziza Ismailovna Sam DAQI 201-QQL guruhtalabasi
RaximovLazizAbduazizovich TAQI “ATN” kafedrasimustaqiltadqiqotchisi

САМАРҚАНД – 2013 йил

Yusupova Aziza Ismailovna Sam DAQI 201-QQL guruhtalabasi
RaximovLazizAbduazizovich TAQI “ATN” kafedrasimustaqiltadqiqotchisi

Registon me'moriy majmuasi Samarqand shahrining yuragi hisoblanadigan registon maydonida tashkil topgan. Uning maydoning eni 67 metr, uzunligi 80 metrni tashkil qiladi. Bu maydon qadim zamonlardan boshlab shahar tarkibiga ya'ni XIII asrning o'rtalaridan boshlab shahristonga aylangan. Registonlar Gretsiyadagi Agora, Rim imperasidagi Forum, Rossiya shaharsozligidagi “Qizilmaydon”lar singari O'rta Osiyo shaharlaridagi bosh maydonni tashkil etgan. O'rta asrlarda Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Qarshi, Andijon, Xirotda va boshqa shaharlarda ham registon maydonlarining bo'lganligi ularning rasta, choras, dacha, guzar va chaqar singari shahar elementlari tarkibida turganligidan dalolat beradi.



Registon me'moriy ansablining mustaqillik yillaridagi ko'rinishi.

Samarqand registonida dastlab jome' masjidi Amir Temur davrida esa Tuman Og'a Timi va boshqa ko'plab savdo-sotiq inshootlari mavjud bo'lgan. Mirzo Ulug'bek bu yerda madrasa, xonaqoh, masjid, karvonsaroy, hammom va boshqa binolarni qurdiradi. Keyinchalik bu yerda Ko'kaldosh masjidi, Abu Said madrasasi va savdo rastalari quriladi. Bugungi kunda esa bu yerda MirzoUlug'bek tomonidan qurilgan madrasa (1420-yilda) XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir hurmat va e'tibor bilan Ulug'bek asos solgan majmuani tiklash maqsadida xonaqoh vayronalari o'rnida Sherdor madrasasini (1619-1636yillarda), karvonsaroy vayronalari o'rnida Tillakori (1646-1660) madrasasini qurdiradi va bu maqsadga erishdi. Ana shu bebaho g'amxo'rlik tufayli bugungi kunda ham Ulug'bek asos qoldirgan majmua Samarqand yuragi sifatida yer yuziga sayqal bermoqda. Samarqand shahrining Registon maydoni me'moriy majmua sifatida Ulug'bek davrida shakillandi. U qaytadan rejalashtirilib, maydonga Ulug'bek madrasasidan tashqari peshtoqli va ulkan gumbazli xonaqoh-karvonsaroy, o'ymakor, yog'ochdan ishlangan masjidi muatta bino qilindi. Ikki yuz o'n gumbazli alike Ko'kaldosh jome' masjidi qad ko'tardi. Bu oliy imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina bizning davrimizgacha saqlangan. Madrasa me'moriy jihatdan shuturdagi binolarning klassik namunasi hisoblanadi.

Bugungi kunda Registon maydonida olti tilda Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasida yagona bo'lgan "Samarqand yuragi" nomli "Nurli ovoqli panorama xizmati mavjud" Registon me'moriy majmuasi nafaqat dunyo sayohatchilari diqqat markazidagi maskan bo'libgina qolmasdan, balki hukumatimiz mag'rurligi ostida Respublika va umumjahon "Sharq taronalari" musiqa festivali 1997-yildan boshlab an'anaviy tarzda har ikki yilda bir marta nishonlanib kelmoqda hamda viloyat miqiyosida amalga oshiriladigan haqiqiy do'stlik, shodlik va xurramlikni madh etguvchi markazga aylangan. Prezidentimiz Islom Karimov Samarqand shahrida Amur Temur haykalining ochilishida so'zlagan nutqida Samarqandni o'z san'atlari bilan yer yuzining mo'jizasiga aylantirgan me'moru-muhandislar nomini alohida tilga olib ularga tasannolar aytgan edi. Demakki, bugungi avlod bobolarimiz qoldirgan buyuk merosni asrab-avaylash, uning yuksakligidan, bebaholigidan

faxrlanish bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Shu gulshan durdonalar yoniga munosib durdonalar bunyod etmoqdalar. Me'moriy-ma'naviy merosimiz xazinasini boyitmoqdalar va bu shiddat, azmu-ishtiyoq, yuksak ijod also so'nmas, balki tobora alangalanib, rivojlanib borajak. Chunki bizda Istiqlol bergan buyuk imkon-ozod mehnat, erkin ijod, hur bunyodkorlik saodati bor. Erkin qushning qushning parvozi doim yuksak bo'ladi.

***Parvozing samolarni quchaversin ey ozod sarlochin, ey tarixi buyuk va
hurriyat shahri-jonim Samarqand.***

***Vatanimning musaffo osmonida chaqmoq yulduz bo'lib mangu porlayver, ey
tafakkur va tashabbus maskani- aziz Samarqand.***